


**Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi**

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



**2023- YIL
YANVAR**

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
ulushi –
63,5 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
408,9
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
1 211,9
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
61,2 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
102,7 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
100,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 211,9** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **143,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,7** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	1 211,9	102,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	73,8	129,1
Moliyaviy xizmatlar	260,5	110,0
Transport xizmatlari	203,1	97,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	175,4	94,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	25,5	88,9
Savdo xizmatlari	358,3	96,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	31,9	100,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	48,3	123,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	31,7	115,8
Ijara xizmatlari	20,4	96,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	36,4	99,6
Shaxsiy xizmatlar	79,6	94,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	11,8	98,2
Boshqa xizmatlar	30,6	102,2

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Taqqoslash uchun: 2023- yilning yanvar oyida Ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **123,8** %. Nisbatan past yashash va ovqatlanish xizmatlarida kuzatilgan – **88,9** %.




Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

2023-yilning yanvar oyida transport xizmatlari hajmi **203,1** mlrd. soʻmga teng boʻlib, ularning oʻsishi 2022- yilning shu davriga nisbatan **97,9** % ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **16,7** % ni tashkil etdi.

Turlari boʻyicha transport xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar oyida)



2023- yilning yanvar oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **86,4** % dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar oylarida ushbu transport turi tomonidan koʻrsatilgan xizmatlarning ulushi **90,2** % ni tashkil etgan.

Dastlabki maʼlumotlar

2023- yil yanvar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **29,6 %** ni tashkil etib, bu **358,3** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ularning hajmi **328,7** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **30,8 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2023-y.
yanvar

358,3 mlrd.
so'm



328,7 mlrd.
so'm



Hajmning
o'sishi

96,5 %



107,7 %

2022-y.
yanvar


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **73,4 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **19,9 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **6,7 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yilning yanvar oyida)



Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar oyida chakana savdo ulushi **80,7 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar
(2023- yil yanvar oyida)

2023- yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi **260,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar oyida ularning hajmi **224,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **21,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ularning ulushi **21,4** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **35,6** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **110,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ularning o'sish sur'ati **142,5** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyli yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,3 %** oralig'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,3 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar oyida)

Yordamchi moliyaviy
faoliyat



Sug'urta bo'yicha
xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **93,8 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,4 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,8 %** ni tashkil etgan .

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari




Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2023- yil yanvar oyida ularning ulushi **94,0 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **92,4 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2023- yilning yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **38,3 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,6 %** ini tashkil etdi. 2022- yilning yanvar oylariga nisbatan o'sish sur'ati **123,8 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar


2023- y.
yanvar



2022- y.
yanvar




Xizmatlar hajmi




24,0 mlrd. so'm

2,6 %




Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi




2,3 %

115,8%



O'sish sur'ati



112,7 %

Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar


2022-yil yanvar oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **1,1** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



**2022- y.
yanvar**

**2023- y.
yanvar**



**Yashash bo'yicha
xizmatlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

2023- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **79,4** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar oyida ushbu xizmat turlarining ulushi **80,3** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
Namangan viloyati	1 211,9	102,7	114,7
Namangan sh.	502,7	103,7	117,4
tumanlar:			
Mingbuloq	44,4	102,3	111,0
Kosonsoy	59,8	102,1	112,1
Namangan t.	61,4	101,8	112,8
Norin	52,1	101,9	113,7
Pop	78,3	101,5	122,5
To'raqo'rg'on	77,9	102,4	110,9
Uychi	72,8	101,5	113,4
Uchqo'rg'on	58,5	101,8	112,4
Chortoq	64,7	102,5	109,7
Chust	79,2	102,8	114,1
Yangiqo'rg'on	60,1	101,6	112,3


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2023- yil yanvar oyida)



2023- yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **41,5 %** (2022-yilning yanvar oyida – **35,7 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **3,7 %** (2022- yilning yanvar oyida – **4,3 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning
o'sishi

408,9
ming so'm

40,3 ming
so'mga

2023- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **408,9** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022 - yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **368,6** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,3 %** da qayd etilgan.

O'sish sur'ati



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi




2023- yil yanvar oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **61,2 %** ni tashkil etdi

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **80,8 %** ga to'g'ri keldi.

**Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00**



Dastlabki ma'lumotlar